



O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

Ichki valyuta bozori sharhi

2025-yil yakuni bo'yicha



Kirish

2025-yilda O'zbekiston Respublikasi ichki valyuta bozori infratuzilmasida muhim tarkibiy o'zgarishlar fonida chet el valyutasi bilan bog'liq operatsion faollikning o'sishi kuzatildi.

Bunda, eksport tushumlari, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hamda xalqaro pul o'tkazmalari hajmining ortishi xorijiy valyuta taklifini sezilarli darajada o'sishiga olib keldi.

Shu bilan birga, importni moliyalashtirish hamda iqtisodiy faollikning yuqori sur'atlari valyutaga bo'lgan talabni oshiruvchi omillardan bo'ldi.

Ichki valyuta bozoridagi savdolarida bozor mexanizmlarining yanada takomillashuvi, market-meykerlar sonining ortishi, almashuv kursi shakllanishida tijorat banklari rolining oshishi hamda tashqi iqtisodiy omillarga sezgirlikning kuchayishi natijasida valyuta kursi tebranuvchanligi avvalgi yillarga nisbatan kengroq diapazonda shakllandi.

Mazkur o'zgarishlar sharoitida aholi va tadbirkorlik subyektlarining milliy valyutadagi jamg'armalari hajmi va so'mdagi hisob-kitoblari ulushi ortishi, inflyatsion kutilmalarning shakllanishida valyuta kursi omilining ta'siri pasayishi hamda moliya tizimida dollarlashuv darajasining kamayishi kabi ijobiy tendensiyalar kuzatildi.

Ichki valyuta bozori sharhi

Yuridik shaxslar valyuta taklifining o'sish sur'ati ularning valyutaga bo'lgan talabi o'sish sur'atidan sezilarli yuqori shakllandi.


2025-yil davomida yuridik shaxslar tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab 2024-yilga nisbatan **24 foizga** o'sgan bo'lsa, ular tomonidan valyuta taklifi hajmi **36 foizga** oshdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport tushumlari hisobiga shakllanadigan valyuta taklifi ushbu davrda **18 foizga** oshib, **18,0 mlrd** dollarni tashkil etdi. Mazkur eksport tushumlarining **9,8 mlrd** dollari yoki **40 foizi** ichki valyuta bozorida sotildi (2024-yilga nisbatan 19 foiz yoki 1,6 mlrd dollarga ko'p).

Shuningdek, 2025-yilda ichki valyuta bozoriga **9,7 mlrd** dollarlik valyuta mablag'lari banklar tomonidan **xorijiy kreditlar** hisobidan sotildi (2024-yilga nisbatan 69 foiz yoki 4,0 mlrd dollarga ko'p).


Importni moliyalashtirish manbalari tarkibida ichki valyuta bozorida sotib olingan mablag'lar (konvertatsiya) ulushi **63,7 foizni** (2024-yilda – 63,7 foiz), xorijiy valyutadagi o'z mablag'lari hisobiga importni moliyalashtirish ulushi **24,0 foizni** tashkil etdi (2024-yilda – 24,5 foiz).

1-rasm. 2024-2025-yillarda importni moliyalashtirish manbalari, foizda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Sotib olingan xorijiy valyutaning asosiy qismi – **50 foizi** ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar, tovarlar va xomashyo importi, **28 foizi** – xorijiy valyutadagi kreditlarni so'ndirish, **17 foizi** – xalq iste'moli tovarlari va dori-darmon mahsulotlari importi, **2 foizi** – xorijiy investorlar daromadlarining repatriatsiyasi va qolgan **3 foizi** – boshqa maqsadlar uchun xarid qilingan.

2-rasm. Sotib olingan chet el valyutasi maqsadlari tarkibi, foizda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Jismoniy shaxslarning banklar bilan amalga oshirgan operatsiyalarining ijobiy saldosi ichki valyuta bozorida qo'shimcha taklif manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Aholi tomonidan tijorat banklariga **21,7 mlrd** dollar sotilib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan **1,4 barobarga** oshdi (2024-yilda – 16,1 mlrd dollar).

Shu bilan birga, jismoniy shaxslar tomonidan **12,0 mlrd** dollar sotib olinib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan **27 foizga** o'sdi (2024-yilda – 9,4 mlrd dollar).

Umuman olganda, jismoniy shaxslar tomonidan xorijiy valyuta taklifi hajmi unga bo'lgan talab hajmidan **9,7 mlrd** dollarga ortiq bo'ldi (2024-yilga nisbatan 1,4 barobar ko'p).

3-rasm. Aholining banklar bilan amalga oshirilgan operatsiyalari, mln dollarda**4-rasm. Pul o'tkazmalari orqali kelib tushgan valyuta mablag'lari, mln dollarda**

Manba: Banklar ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari


Mazkur davrda aholining banklarga valyuta sotuvining asosiy manbai bo'lgan xalqaro pul o'tkazmalari orqali mamlakatimizga **18,9 mlrd** dollar miqdorida valyuta mablag'lari kelib tushdi (2024-yilga nisbatan 28 foiz yoki 4,1 mlrd dollarga ko'p).

Shuningdek, xalqaro pul o'tkazmalari orqali mamlakatimizdan **2,6 mlrd** dollar miqdorida valyuta mablag'lari chiqib ketgan bo'lib, 2024-yilga nisbatan 138 mln dollarga kamaydi.

2025-yil boshidan almashuv kursi 6,9 foizga mustahkamlanib, kunlik tebranuvchanlik darajasi ikki barobarga oshdi.

2025-yilda milliy valyuta almashuv kursi dinamikasi ichki valyuta bozoridagi talab va taklif omillari, umumiy makroiqtisodiy tendensiyalar va tashqi iqtisodiy sharoitlar ta'sirida shakllandi.

5-rasm. 2025-yil davomida almashuv kursi dinamikasi, so'mda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Umuman olganda, mamlakatimizda eksport, xorijiy kreditlar va pul o'tkazmalari kanallari orqali valyuta oqimlarining sezilarli darajada oshishi, shuningdek, xorijiy investitsiyalar hajmining o'suvchi dinamikasi hamda importning nisbatan barqarorlashishi ichki valyuta bozorida valyuta kursi mustahkamlanishiga ta'sir etgan omillardan bo'ldi.

Valyuta kursi tebranuvchanligi


O'zbekistonda valyuta savdolarini tashkil etishning "metching" usuliga o'tilgan 2021-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda ikki tomonlama tebranuvchanlik o'rtacha **0,1 foizni** tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 2024-yilga nisbatan **2 barobardan** ko'proqqa oshib, **0,28 foizga** yetdi. Ta'kidlash joizki, 2025-yil aprel-dekabr oylari davomida tebranuvchanlik

0,35 foizgacha ko'tarilgan bo'lib, moslashuvchanlik darajasi yuqori hisoblangan davlatlar valyutalariga yaqinlashdi (6-rasm).

Shuningdek, 2025-yilda so'mning o'rtacha standart og'ishi so'mda **42,95** ga teng bo'lgan bo'lsa, foiz ko'rsatkichi **0,34 foizni** tashkil etdi (2021-2024-yillarda ushbu ko'rsatkich 24,17 so'm yoki 0,21 foizga teng bo'lgan).

2025-yilda o'rtacha kurs **12 575 so'mni** tashkil etgan bo'lsa, yil davomida kursning eng yuqori qiymati **13 004 so'mga** (o'rtacha kursdan 5,5 foizga yuqori) va eng quyi qiymati **11 881 so'mga** (o'rtacha kursdan 3,4 foizga past) teng bo'ldi.

6-rasm. Rivojlanayotgan davlatlar valyutalari va so'mning AQSH dollariga nisbatan tebranuvchanligi, foizda




Manbaa: Refinitive platformasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ)ning **“Valyuta kurs rejimlarini klassifikatsiya qilishning yangilangan tizimi”**ga ko'ra, mamlakatda valyuta kursi 6 oy yoki undan ortiq vaqt davomida markaziy qiymat atrofida **±2%** diapazonda shakllansa, XVJ ushbu holatda valyuta kursini erkin suzuvchi (*floating*) emas, balki barqarorlashtirilgan valyuta kurs rejimi (*stabilized arrangement*) deb baholaydi.


Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, so'm dinamikasi 2025-yilda erkin suzuvchi valyuta kurslari dinamikasini o'zida aks ettirgan.

7-rasm. Almashuv kursi tebranuvchanligi, foizda



*So'm kursining kunlik o'zgarishlari orqali hisoblangan yillik o'rtacha tebranishi moslashuvchan valyuta kursi siyosatini yuritayotgan 25 ta rivojlanayotgan davlatlar¹ almashuv kurslarining yillik o'rtacha tebranish ko'rsatkichiga yaqinlashgan.

8-rasm. O'zbek so'mining almashuv kursi tebranuvchanligi, so'mda va foizda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Valyuta kursi ikki tomonlama tebranuvchanligi oshishining asosiy omillaridan biri ichki valyuta bozorida market-meykerlar sonining oshgani hamda ular tomonidan tuzilgan bitimlar hajmining sezilarli darajada ortgani bo'ldi. Xususan, 2025-yil yakuniga kelib market-meykerlar² soni 2 tadan 5 tagacha ko'paydi.

Almashuv kursining mustahkamlanishi natijasida iqtisodiyotimizda milliy valyutaga bo'lgan ishonch oshishi bilan bog'liq bir qator ijobiy makroiqtisodiy tendensiyalar kuzatilmoqda.

2025-yilda:

milliy valyutadagi hisob-kitoblar hamda jamg'arishning faollashishi hisobiga bank tizimidagi **milliy valyutadagi depozitlar** hajmi yil boshidan **44 foizga** oshib, **240 trln** so'mga yetdi;

¹ Armaniston, Braziliya, Chili, Kolumbiya, Gruziya, Vengriya, Hindiston, Indoneziya, Qozog'iston, Malayziya, Meksika, Paragvay, Peru, Polsha, Tailand, Turkiya, Urugvay va boshqalar.

² **Market-meyker** – muayyan valyuta juftligi bo'yicha doimiy ravishda sotib olish va sotish buyurtmalarini taklif qilib, bozor likvidligini ta'minlaydigan ishtirokchi (bank).

aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari mos ravishda **11,5 va 11,1 foizgacha** sekinlashdi (*yil boshida mos ravishda 14,4 va 13,9 foiz*) hamda kutilmalar shakllanishida valyuta **kursi omili ikki barobarga qisqardi**;

depozit va kreditlarning dollarlashuv darajasida pasayish dinamikasi tezlashdi (*kreditlar bo'yicha 41 foizdan 38 foizgacha, depozitlar bo'yicha 26 foizdan 22 foizgacha*);

mijozlarning banklarga jami valyuta sotuvi **35 foizga** oshib, **47 mlrd** dollarga yetdi;

davlat va korporativ tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari o'rtacha **6-7 foizgacha** qisqardi.

Ushbu tendensiyalarning davom etishi milliy valyutaga bo'lgan ishonchni kuchaytirib, so'mdagi aktivlar jozibadorligini oshishiga va umuman olganda makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy hissa qo'shadi.

Valyuta bozorida kommunikatsiya

2025-yilda valyuta bozorida kommunikatsiyani yaxshilash borasida Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) hamda bir qator mahalliy va xorijiy ekspertlar bilan hamkorlikda ishlar olib borildi.

Xususan, 2025-yilning avgust oyida XVJ texnik missiyasi jalb etilgan holda valyuta bozorini rivojlantirishning keyingi bosqichlari, shu jumladan kommunikatsion siyosat shaffofligini yanada oshirish masalalari muhokama qilindi.

Texnik missiya yakunlari bo'yicha ekspertlar tavsiyalari asosida valyuta bozoridagi tendensiyalarni muhokama qilib borish uchun Markaziy bank, tijorat banklari, halqaro tashkilotlar mutaxassislari, iqtisodchilardan iborat "Valyuta bozori ekspertlar guruhi" tashkil etildi. Shuningdek, 2025-yil noyabr oyida keng jamoatchilik, xususan xorijiy va mahalliy ekspertlar hamda OAV vakillari ishtirokida, "Inflyatsion targetlash rejimida suzuvchi valyuta kursining ahamiyati" mavzusida forum tashkil etildi.

Mazkur forum inflyatsion targetlash rejimi va suzuvchi valyuta kursi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan siyosatning nazariy va amaliy asoslarini tushuntirish, shuningdek, ushbu makroiqtisodiy jarayonlarda bozor ishtirokchilarining o'рни va ahamiyatini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi.

Kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar

Ichki valyuta bozorida yanada ochiq kommunikatsiya siyosatini yuritishni maqsad qilgan holda “2026-yil uchun valyuta bozorida kommunikatsion siyosatni yuritish bo'yicha tadbirlar rejasi” ishlab chiqildi.

Unga ko'ra, yil davomida doimiy ravishda ichki valyuta bozoridagi asosiy tendensiyalar hamda infratuzilmani takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida:

infografik ma'lumotlarni doimiy ravishda e'lon qilib borilishi;

sharhlar va tahliliy ma'lumotlarni choraklik kesimda taqdim etib borilishi;

audio va video formatdagi podkastlar tashkil etilishi;

tashqi savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar, iqtisodchilar, media vakillari ishtirokida davra suhbatlari tashkil etilishi;

har chorakda kamida bir marta “Valyuta bozori ekspertlar guruhi”ning yig'ilishi tashkil etilishi belgilandi.